



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



**VOL.3 № 3**

**2026**

## **XALQ DIPLOMATIYASINING TARIXIY SHAKLLANISHI VA O'ZBEKISTON TASHQI ALOQALAR TIZIMIDAGI O'RNI**

**To'xtasinov Bobomurod Tulkinboy o'g'li**

Din ishlari bo'yicha qo'mita huzuridagi Diniy-ma'rifiy sohada malaka oshirish va qayta tayyorlash instituti Namangan mintaqaviy filiali, katta o'qituvchi, PhD, dotsent

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada xalq diplomatiyasi tushunchasining tarixiy shakllanishi, uning an'anaviy diplomatiyadan farqli jihatlari hamda O'zbekiston tashqi aloqalar tizimidagi o'rni tarixiy-tahliliy yondashuv asosida yoritilgan. Shuningdek, mustaqillik davrida O'zbekistonda xalq diplomatiyasining institutsional va ijtimoiy asoslari shakllanish bosqichlari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Xalq diplomatiyasi, norasmiy diplomatiya, tarixiy aloqalar, O'zbekiston tashqi munosabatlari, madaniy almashinuv, ijtimoiy xotira, sivilizatsiyalararo muloqot.

## **ИСТОРИЧЕСКОЕ ФОРМИРОВАНИЕ НАРОДНОЙ ДИПЛОМАТИИ И ЕЕ МЕСТО В СИСТЕМЕ ВНЕШНИХ ОТНОШЕНИЙ УЗБЕКИСТАНА**

**Тухтасинов Бобомурод Тулкинбой угли**

Наманганский региональный филиал Института повышения квалификации и переподготовки в религиозно-просветительской сфере при Комитете по делам религий, старший преподаватель, PhD, доцент

### **Аннотация**

В данной статье на историко-аналитическом подходе рассматривается историческое формирование концепции публичной дипломатии, ее отличия от традиционной дипломатии и ее место в системе внешних связей Узбекистана. Также анализируются этапы формирования институциональных и социальных основ публичной дипломатии в Узбекистане в период независимости.

**Ключевые слова:** народная дипломатия, неформальная дипломатия, исторические связи, внешние отношения Узбекистана, культурный обмен, социальная память, диалог между цивилизациями.

## **HISTORICAL FORMATION OF PEOPLE'S DIPLOMACY AND ITS PLACE IN THE SYSTEM OF FOREIGN RELATIONS OF UZBEKISTAN**

**To'xtasinov Bobomurod Tulkinboy o'g'li**

Namangan Regional Branch of the Institute for Advanced Training and Retraining in the Religious and Educational Sphere under the Committee for Religious Affairs, Senior Lecturer, PhD, Associate Professor

### **Abstract**

This article examines the historical formation of the concept of public diplomacy, its differences from traditional diplomacy, and its place in the system of foreign relations of Uzbekistan based on a historical-analytical approach. It also analyzes the stages of the formation of the institutional and social foundations of public diplomacy in Uzbekistan during the period of independence.

**Keywords:** People's diplomacy, informal diplomacy, historical ties, foreign relations of Uzbekistan, cultural exchange, social memory, dialogue between civilizations.

Tarixiy jarayonlar tahlili shuni ko'rsatadiki, davlatlararo munosabatlar faqat rasmiy diplomatik institutlar orqali emas, balki jamiyatlar o'rtasidagi bevosita ijtimoiy-madaniy aloqalar orqali ham shakllanib kelgan. Shu ma'noda, zamonaviy ilmiy muomalada "xalq diplomatiyasi" deb ataluvchi hodisa tarixiy ildizlarga ega bo'lib, u davlat tashqi siyosatining norasmiy, ammo barqaror ta'sir mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, davlatlararo munosabatlar faqat rasmiy diplomatik elchiliklar va siyosiy bitimlar orqali emas, balki xalqlar o'rtasidagi uzoq muddatli ijtimoiy-madaniy aloqalar orqali ham shakllanib kelgan. Aynan shu jarayonlar bugungi ilmiy adabiyotlarda "xalq diplomatiyasi" deb nomlanayotgan hodisaning tarixiy asoslarini tashkil etadi.

O'zbekiston tarixi nuqtayi nazaridan ushbu masala alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki Markaziy Osiyo hududi qadimdan Sharq va G'arbni bog'lovchi madaniy va savdo makoni bo'lib, bu yerda rasmiy siyosiy aloqalardan tashqari, jamoatchilik, savdogarlar, olimlar va diniy arboblarning orqali olib borilgan norasmiy aloqalar muhim rol o'ynagan [1].

Shu nuqtayi nazardan xalq diplomatiyasining tarixiy shakllanish jarayonini ochib berish hamda mustaqillik davrida O'zbekiston tashqi aloqalar tizimida uning o'rnini tarixiy tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

#### Asosiy qism

Ilmiy adabiyotlarda xalq diplomatiyasi tushunchasi XX asrda ilmiy atama sifatida shakllangan bo'lsada, uning amaliy ko'rinishlari ancha qadimgi davrlarga borib taqaladi. Qadimgi va o'rta asrlarda savdogarlar, sayyohlar, olimlar va diniy arboblarning davlatlararo aloqalarda muhim vositachilik rolini bajargan. Buyuk Ipak yo'li doirasida Markaziy Osiyo hududi Sharq va G'arb o'rtasidagi nafaqat iqtisodiy, balki madaniy va intellektual muloqot markazi vazifasini bajargan.

Mazkur jarayonlar zamonaviy talqinda xalq diplomatiyasining tarixiy prototiplari sifatida baholanadi. Chunki bu aloqalar rasmiy diplomatik vakolatga ega bo'lmagan subyektlar orqali amalga oshirilgan va uzoq muddatli ijtimoiy ishonchni shakllantirishga xizmat qilgan.

Xalq diplomatiyasi tushunchasi termin sifatida XX asrda shakllangan bo'lsada, uning mazmuni tarix, xalqaro munosabatlar va madaniyatlararo muloqotga oid tadqiqotlarda turli aspektlarda yoritilgan.

G'arb tarixshunosligida J. Nye tomonidan ilgari surilgan "soft power" konsepsiyasi xalq diplomatiyasining zamonaviy talqiniga nazariy asos bo'lib xizmat qilgan [2]. N. Cull esa xalq diplomatiyasini davlat va jamiyat o'rtasidagi xalqaro kommunikatsiyaning tarixiy shakli sifatida baholaydi [3].

Rossiya va MDH olimlari (A. Torkunov, V. Degoyev) norasmiy diplomatik aloqalarning tarixiy ahamiyatini davlatlararo munosabatlarning barqarorlik omili sifatida izohlaydi [4].

O'zbekiston tarixshunosligida esa xalq diplomatiyasi masalasi bevosita termin sifatida kam qo'llanilgan bo'lsa-da, Buyuk Ipak yo'li, madaniy aloqalar, ilmiy-ma'rifiy almashinuv va diniy bag'rikenglik masalalarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda mazkur hodisaning tarixiy asoslari yoritilgan [5].

Xalq diplomatiyasining an'anaviy diplomatiyadan farqini tarixiy nuqtayi nazardan e'tibor qaratsak, tarixiy tahlil shuni ko'rsatadiki, an'anaviy diplomatiya asosan hukmdorlar, elchilar va davlat institutlari faoliyati bilan bog'liq bo'lgan. Xalq diplomatiyasi esa jamiyatning keng qatlamlarini qamrab olishi bilan ajralib turadi.

Agar an'anaviy diplomatiya qisqa muddatli siyosiy kelishuvlarga yo'naltirilgan bo'lsa, xalq diplomatiyasi tarixiy jarayonda madaniy uzluksizlik, ijtimoiy xotira va sivilizatsiyalararo muloqotni ta'minlovchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Bu jihat uni tarix fanida alohida tahliliy kategoriya sifatida qo'llash imkonini beradi hamda, tarixiy-ijtimoiy fanlarga xos quyidagi metodlar orqali qo'llanilishiga imkon yaratadi:

- tarixiylik va izchillik metodi — xalq diplomatiyasining shakllanish bosqichlarini aniqlashda;
- tarixiy-taqqoslash metodi — an'anaviy va norasmiy diplomatik aloqalarni

solishtirishda;

- manbashunoslik tahlili — yozma manbalar, ilmiy tadqiqotlar va rasmiy hujjatlarni tahlil qilishda;
- tarixiy-diplomatik yondashuv — O‘zbekiston tashqi aloqalari evolyutsiyasini baholashda.

Metodologiya siyosatshunoslik yoki normativ yondashuvlarga emas, balki tarixiy jarayon va faktlarga asoslangan.

Tahlil va natijalar

Xalq diplomatiyasining tarixiy ildizlari. Qadimgi va o‘rta asrlarda Markaziy Osiyo hududi orqali o‘tgan Buyuk Ipak yo‘li savdo yo‘lagi bo‘lish bilan birga, sivilizatsiyalararo muloqot makoni vazifasini bajargan. Savdogarlar, sayyohlar va olimlar davlatlararo aloqalarda rasmiy elchilardan kam bo‘lmagan rol o‘ynagan [6].

Markaziy Osiyo xalqlari ijtimoiy-madaniy aloqalarining juda uzoq tarixiy jarayonda yuz berganligiga arxeologik tadqiqotlarning natijalari guvohlik beradi. Qadimiy Baqtriya yodgorliklarini tadqiq etgan olimlarimiz chet ellarda yasalgan turli xil predmetlar topilishi bilan birga Sharq mamlakatlariga “eksport uchun mo‘ljallangan hunarmandchilik mahsulotlari tayyorlanganligini fanga ma‘lum qildilar”[7].

Markaziy Osiyo xalqlarining o‘zaro aloqalari ta’sirida hunarmandchilikning shakllanishi va mahsulotlar ayirboshlash xalqaro munosabatlarning qaror topishiga olib kelgan omil edi. O‘zbekiston hududidan savdo yo‘llari o‘tishi yurtimizning jahon aloqalariga tortilishiga sabab bo‘ldi. Ilk o‘rta asrlar shaharlarining tarixini tadqiq etgan A.Anorbayev: “...xalqaro savdo-sotiq aloqalarinng o‘snshi madaniy munosabatlarning shakllanishiga olib keldi. Shu boisdan shaharlarning o‘sishi va turg‘unligi xalqaro aloqalarning holatiga bevosita bog‘liq holda bo‘lgan”, – degan xulosaga keladi. Kolaversa yurtimizdan “Buyuk Ipak yo‘li”ning o‘tishi xalq diplomatiyasining vujudga kelishiga, shaharlarimizning gullab-yashnashiga olib kelgan hodisadir [8].

Mamlakatimiz xalqlarining xalqaro munosabatlari tarixidagi sifat jihatidan yangi bosqich milliy davlatlar va xonliklar tashkil topishi bilan bog‘liqdir. Zero shu asnda turli xalqlar o‘rtasidagi birgalikda kechirilgan hayot voqealari munosabati bilan ham siyosiy-iqtisodiy, ham madaniy aloqalar shakllana bordi, xalqlarning o‘zaro hamkorlik va o‘zaro ta’sir ko‘rsatish jarayoni boshlandi, har xil millatlarning do‘stlik va nizolar negizidagi uchrashuvlarining mushtarak maydoni yuzaga keldi, shu bilan birga xalq diplomatiyasi shakllana boshladi. Xalq diplomatiyasi “milliy chekka o‘lkalar”ni keng jo‘g‘rofiy makon doirasida asta-sekin yagona ijtimoiy-iqtisodiy jarayon tegrasiga torta boshladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy ozodlik uchun birgalikda olib borilgan kurash xalq diplomatiyasining qaror topishida integratsiyalovchi omil bo‘lib qoldi. Ko‘p asrlik xalqlar birligi xalq diplomatiyasi qaror topishining shartiga aylandi.

Bu jarayonlar zamonaviy tushunchada xalq diplomatiyasining tarixiy prototiplari sifatida talqin etilishi mumkin. Chunki ular rasmiy vakolatga ega bo‘lmagan subyektlar orqali amalga oshirilgan va uzoq muddatli ijtimoiy ishonchni ta’minlagan.

An’anaviy va norasmiy diplomatiya nisbatining tarixiy tahlili.

Tarixiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy diplomatiya ko‘proq siyosiy elitalar darajasida olib borilgan bo‘lsa, xalq diplomatiyasi jamiyatlararo aloqalarning uzluksizligini ta’minlagan. Ayniqsa, madaniyat, din va ilm-fan sohalaridagi aloqalar siyosiy inqiroz davrlarida ham saqlanib qolgan [9].

Bu holat xalq diplomatiyasining tarixiy jarayondagi barqarorlashtiruvchi funksiyasini ko‘rsatadi.

Xalq diplomatiyasi – umumiylik va xususiylikni qonuniy zaruriyati bo‘lib, o‘zida munosabatlarning barcha shakllarini, ya’ni ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy muloqotlarni hamda aholining barcha qatlamlarini – ishchilar, hunarmandlar, ziyolilar, diniy arboblardan va partiya

arboblari, talabalar, maktab o'quvchilarini jamlay olgan xalqlaro munosabatlarning mushtarak shaklidir.

Mustaqillik davrida O'zbekistonda xalq diplomatiyasining rivoji.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, tashqi aloqalar tizimida xalq diplomatiyasining roli bosqichma-bosqich kuchaydi. Dastlab bu jarayon madaniy va gumanitar hamkorlik shaklida namoyon bo'lgan bo'lsa, keyinchalik diaspora bilan aloqalar, xalqaro madaniy markazlar, ta'lim va ilm-fan sohasidagi hamkorlik orqali tizimli tus oldi.

1991-yildan keyin O'zbekiston tashqi aloqalarida madaniy-gumanitar hamkorlik ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi. Xalqaro madaniy markazlar, xorijdagi diasporalar bilan aloqalar, ilmiy va ta'limiy almashinuv dasturlari xalq diplomatiyasining institutsional asoslarini shakllantirdi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va konfessiyalararo hamjihatlikni, jamiyatda fuqarolar totuvligini mustahkamlash, barcha fuqarolarga millati va diniy e'tiqodidan qat'iy nazar, teng huquq va imkoniyatlar yaratish, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O'zbekistonda davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan.

Bugungi kunda respublikamizda faol "xalq diplomatiyasi" asosida chet eldagi vatandoshlarimiz bilan muntazam va o'zaro foydali munosabatlarni yo'lga qo'yish, xorijiy mamlakatlar bilan do'stona munosabatlarni va madaniy-ma'rifiy aloqalarni mustahkamlash orqali o'z faoliyatini O'zbekistonda yashab kelayotgan barcha millat va etnik diasporalarning tarixi, madaniyati, ma'naviy qadriyatlari, milliy an'analari va urf-odatlarini saqlash hamda har tomonlama rivojlantirish tamoyillariga asosan olib borayotgan Respublika baynalmilal madaniyat markazi, 138 ta milliy madaniy markazlar, O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi, shuningdek, 34 ta do'stlik jamiyatlari muvafaqqiyatli faoliyat yuritib kelmoqda [10].

Hozirgi tezkor zamon va yangi davr talablaridan kelib chiqib, bugungi kunda yurtimizda millatlararo totuvlikni mustahkamlash va xorijiy mamlakatlarda istiqomat qiluvchi vatandoshlarimiz bilan aloqalarni yanada rivojlantirish maqsadida, Prezident Sh.Mirziyoyev tashabbuslari bilan 2017-yil 19-maydagi "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi №PF-5046-son Farmon va 2017-yil 23-maydagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-2993-son Qarori asosida Respublika Baynalmilal madaniyat markazi negizida hamda O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari Kengashi yangi tuzilmaga aylantirilib, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tashkil etildi.

Qo'mita o'z faoliyati doirasida mamlakatimizda millatlararo totuvlikni ta'minlash, xalq diplomatiyasi vositasida xorijdagi vatandoshlarimiz bilan muntazam do'stona aloqalarni yo'lga qo'yish orqali O'zbekistonda yashab kelayotgan barcha millat va elat vakillarining tarixi, madaniyati, qadriyatlari, milliy urf-odatlarini saqlash, har tomonlama rivojlantirishni kuchaytirish kabi ishlarni amalga oshirib kelmoqda.

Xususan, xorijiy davlatlar bilan madaniy-ma'rifiy almashinuvlar, tarixiy merosni targ'ib etish, xalqaro ilmiy konferensiyalar va jamoatchilik tashabbuslari O'zbekistonning xalqaro imijini shakllantirishda muhim tarixiy omilga aylandi.

Bu jarayonlarni tarixiy-diplomatik nuqtayi nazardan baholash, O'zbekiston tashqi siyosatining evolyutsiyasini to'liqroq anglash imkonini beradi.

Bu jarayon tarixiy nuqtayi nazardan O'zbekiston tashqi aloqalarining yangi bosqichi sifatida baholanadi.

Xalq diplomatiyasining tarixiy ahamiyati sifatida tarix fanida xalq diplomatiyasi



quyidagi jihatlari bilan ahamiyatlidir:

- davlatlararo munosabatlarning ijtimoiy asoslarini ochib beradi;
- rasmiy siyosiy qarorlarning ijtimoiy qabul qilinish mexanizmini tushuntiradi;
- madaniyat, ta'lim va ilm-fan orqali shakllangan uzoq muddatli aloqalarni tarixiy

manba sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

Shu bois, xalq diplomatiyasini O'zbekiston tarixining zamonaviy bosqichlarini o'rganishda yordamchi emas, balki muqobil tarixiy-tahliliy yo'nalish sifatida ko'rish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, xalq diplomatiyasi tarixiy jarayonlarda jamiyatlararo muloqotni ta'minlagan muhim omil bo'lib, u O'zbekiston hududida qadimdan shakllangan madaniy va ijtimoiy aloqalarning mantiqiy davomi hisoblanadi. Mustaqillik davrida mazkur diplomatiya shaklining rivojlanishi O'zbekiston tashqi aloqalar tarixida yangi bosqichni boshlab berdi va tarixiy tadqiqotlar uchun muhim ilmiy muammo sifatida dolzarb bo'lib qolmoqda.

Yuqoridagi fikrlar shuni ko'rsatadiki, xalq diplomatiyasi O'zbekiston hududida qadimdan mavjud bo'lgan ijtimoiy-madaniy aloqalarning tarixiy davomidir. Mustaqillik davrida ushbu diplomatiya shaklining rivojlanishi O'zbekiston tashqi aloqalari tarixida muhim o'rin egallaydi.

Xalq diplomatiyasini tarixiy jarayon sifatida o'rganish O'zbekiston tarixining zamonaviy bosqichlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi va dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Бартолд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. — М., 1963.
2. Nye J. Soft Power: The Means to Success in World Politics. — New York, 2004.
3. Cull N. Public Diplomacy: Foundations for Global Engagement. — Cambridge, 2019.
4. Дергеев В. История дипломатии. — М., 2016.
5. Asqarov A. O'zbekiston tarixi. — Toshkent, 2019.
6. Frankopan P. The Silk Roads. — London, 2015.
7. Аскарлов А.А., Ширинов Т. Древнебактрийский храм огня в Южном Узбекистане.// Градостроительство и архитектура: культура Среднего Востока - развитие связи и взаимодействия. -Т.: Фан, 1989.
8. Анарбаев А. Благоустройство средневекового города Средней Азии / V - начало XIII в. / -Т.: Фан, 1981.
9. Torkunov A. Diplomatiya tarixi. — М., 2014.
10. "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining (PF) 5046-sonli Farmoni, 19.05.2017.